

REKLAMA AKSIYASI O‘TKAZISH QOIDALARI

"Qimmatli narsaga obuna"

Ushbu Ommaviy oferta "InfinBank" AJ tomonidan o‘tkaziladigan "Qimmatli narsaga obuna" yutuqli o‘yinini o‘tkazish tartibi, shartlari va vaqtini belgilaydi.

Shartlar va terminlar

Bank – "Invest Finance Bank" aksiyadorlik jamiyati, "Qimmatli narsaga obuna" yutuqli o‘yining tashkilotchisi hisoblanadi.

Ishtirokchi – Bankning rasmiy sahifalariga obuna bo‘lgan foydalanuvchi, u o‘z storiesida yutuqli o‘yin e‘lonini repost qilgan va @investfinancebank manzilini belgilagan va postdagi izohlarda do‘stini/dugonasini belgilagan foydalanuvchi.

G‘olib — Maxsus randomayzer yoki shunga o‘xshash dasturlar orqali aniqlangan Bankning "Qimmatli narsaga obuna" aksiyasining 10 nafar g‘olib bo‘lgan ishtirokchisi

Sovrinlar - 10 ta kichik shokolad qutilari (20 dona shokolad).

Shaxsni tasdiqlovchi hujjat – O‘zbekiston Respublikasi fuqarosining pasporti, harbiy xizmatchilar uchun harbiy guvohnoma, shaxsiy guvohnoma, yangi haydovchilik guvohnomasi, chet elga chiqish uchun biometrik pasport.

Shaxsiy ma’lumotlar - elektron, qog‘oz va (yoki) boshqa moddiy narsalarda qayd etilgan, ishtirokchiga tegishli yoki uning shaxsini aniqlash imkonini beradigan ma’lumotlar.

1. Umumiy qoidalar

1.1. Ushbu qoidalar "Qimmatli narsaga obuna" aksiyani o‘tkazish tartibi, shartlari, joyi va vaqtini belgilaydi. (Keyingi o‘rinlarda aksiya deb yuritiladi).

1.2. Aksiya o‘tkazish hududi: aksiya O‘zbekiston Respublikasi hududida "InFinBank" AJ bank tizimida o‘tkaziladi.

1.3. Aksiya sanasi: aksiya 2024-yil 26-fevraldan 2024-yil 24-mart davom etadi.

2. Aksiya ishtirokchilari

2.1. Aksiyada quyidagi shartlarni bajargan shaxslar ishtirok etishlari mumkin:

- Bankning Instagram yoki Facebook’dagi rasmiy sahifalariga obuna bo‘lish;
- o‘z storiesida tanlov haqidagi e‘lonni repost qiliish;
- Bank sahifasini belgilash;
- tanlov posti ostida o‘z do‘stini belgilsh.

2.2. Bank xodimlari va ularning yaqin qarindoshlari aksiyada qatnashishi mumkin emas.

2.3. Aksiyada ishtirok etish ishtirokchilarning ushbu Qoidalarga to‘liq roziligini bildiradi.

2.4. Agar aksiya ishtirokchisi ushbu Qoidalar talablariga rioya qilmasa, ishtirokchi aksiyada ishtirok etish va sovrin olish huquqidan mahrum bo‘ladi. Sovrinni olish uchun aksiya ishtirokchilari ushbu

Qoidalariga muvofiq aksiyaning amal qilish muddati davomida sovrinni olganligini tasdiqlovchi hujjatlarni imzolash paytigacha talab qilingan barcha harakatlarni bajarishlari shart.

3. Aksiyada ishtirok etish shartlari

3.1. Aksiyada ishtirok etish uchun Instagram yoki Facebook'dagi Bankning rasmiy sahifalariga obuna bo'lishi, tanlov haqidagi e'londa Bank sahifasini belgilab repost qilish va xuddi shu post ostida o'z do'stingizni belgilashingiz kerak.

4. Mukofot jamg'armasi

4.1. Sovrin: 10 ta kichik shokolad qutilari (20 ta shokolad barlari)

4.2. G'oliblar sovrinni almashtirishni so'rashga haqli emas.

4.3. Mazkur oferta bo'yicha amalga oshirilayotgan rag'batlantirish bilan bog'liq soliqqa tortish masalalari O'zbekiston Respublikasining soliq qonunchiligiga muvofiq hal etiladi.

4.4. Sovrinni olish huquqini uchinchi shaxslarga berish taqiqlanadi.

5. Aksiyani o'tkazish va sovrinlarni o'ynash tartibi

5.1 Yutuqli o'yin ishtirokchilari 2024-yil 26-fevraldan 2024-yil 24-mart, ushbu Qoidalariga rioya qilgan shaxslar hisoblanadi. Yutuqli o'yin har hafta jonli e'firda Bankning Instagram'dagi rasmiy sahifasida (@investfinancebank) maxsus Randomus dasturi yoki shunga o'xshash dasturlar yordamida o'tkaziladi.

5.2. Har juma 26.02.2024 dan 24.03.2024 gacha 2 nafardan g'olib aniqlab boriladi.

5.3. Yutuqli o'yinning qaysidir bosqichida g'olib bo'lganlar keyingi bosqichlarda qatnashishi mumkin emas, shuningdek, ushbu aksiya doirasida ikki yoki undan ortiq sovrinlarni olish huquqiga ega emas.

5.4. Bank aksiya ishtirokchilari bilan yozma muzokaralar yoki boshqa aloqalar o'tkazmaslik huquqini o'zida saqlab qoladi, bundan bahsli vaziyatlar yoki sovrinni berish hollari bundan mustasno.

5.5. Aksiyada ishtirok etish ishtirokchilarning o'z ism-shariflari, familiyalari, fotosuratlari va ular haqidagi boshqa materiallardan Bank tomonidan ularga hech qanday haq to'lamasdan reklama maqsadida foydalanish mumkinligiga roziligini bildiradi.

5.6. Bank o'z xohishiga ko'ra ushbu Qoidalariga o'zgartirishlar kuchga kirishidan 10 (o'n) ish kuni oldin www.infinbank.com veb-saytida o'zgartirishlar to'g'risida e'lon joylashtirish orqali ushbu Qoidalariga har qanday o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish huquqini o'zida saqlab qoladi. Bank sovrinlar ro'yxati va hajmini, shuningdek, yutuqli o'yin o'tkazish muddatini o'zgartirish yoki cho'zish huquqiga ega. Bank ishtirokchiga aksiyada ishtirok etishi munosabati bilan yuzaga kelishi mumkin bo'lgan yo'qotishlar, xarajatlar va boshqa zararlarni to'lamaydi va qoplamaydi.

5.7. Bank yutuqli o'yinning butun davri davomida yutuq sohibining sog'lig'iga (hayotiga) yoki uchinchi shaxslarning mol-mulkiga, sog'lig'iga yoki hayotiga yetkazilgan zarar uchun hech qanday javobgarlikni o'z zimmasiga olmaydi.

5.8. Ushbu aksiya davomida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan barcha nizolar va kelishmovchiliklar tinchlik yo'li bilan va o'zaro tushunish asosida Bank va Ishtirokchi o'rtasidagi muzokaralar yo'li bilan hal qilinadi. Agar mabodo ikki tomon o'rtasida kelishuv bo'lmasa, nizo bankning bosh ofisi joylashgan joydagi sudda ko'rib chiqilishi kerak.

5.9. Bank ijtimoiy tarmoqlarda jonli efirda, maxsus Randomus dasturi yoki tasodifiy raqamlarni taqdim etuvchi shunga o'xshash dasturlardan foydalangan holda, 10 ta asosiy g'olibni aniqlaydi va asosiy g'oliblar sovrindan voz kechish va/yoki sovrinni o'z vaqtida olmagan taqdirda, Qoidalarda ko'zda tutilgan tartibda qo'shimcha ravishda 5 (besh) ishtirokchini zaxira nomzod sifatida aniqlaydi.

5.10. Agar asosiy g'olib sovrindan voz kechsa va/yoki 10 ish kunidan ortiq vaqt ichida sovrinni olmasa, sovrin maxsus Randomus dasturida yoki tasodifiy raqamlarni taqdim etuvchi shunga o'xshash dasturlarda birinchi bo'lib aniqlangan zahira nomzodiga beriladi. Agar birinchi zaxiradagi nomzod sovrinni olishdan voz kechsa yoki mukofotni o'z vaqtida olmasa, sovrin ikkinchi zaxira nomzodiga beriladi.

5.11. Agar barcha nomzodlar sovrindan voz kechsa va/yoki sovrinni o'z vaqtida olmasa, Bank komissiyasining qarori bilan ushbu bo'limning tegishli bandlarida nazarda tutilgan tartibda g'oliblarni muqobil aniqlash amalga oshiriladi.

5.12. Agar muqobil g'olibni aniqlash natijalariga ko'ra, sovrinni olishdan voz kechiilsa va/yoki sovrin o'z vaqtida olinmasa, Bank o'z xohishiga ko'ra sovrindan foydalanish huquqini o'zida saqlab qoladi.

5.13. Aksiya natijalari va g'oliblarni aniqlash tartibi bo'yicha Bank komissiyasining bayonnomasi tuziladi va Bank komissiyasi a'zolari tomonidan imzolanadi.

5.14. G'oliblar nomi Bankning rasmiy korporativ veb saytida, ommaviy axborot vositalarida, shuningdek, ijtimoiy tarmoqlarda e'lon qilinadi.

5.15. Bank ijtimoiy tarmoqlarda sovrin yutgan shaxsga bildirishnoma yuboradi.

5.16. Ishtirokchi tomonidan aksiya shartlariga rioya qilmaslik oqibatlari uchun Bank javobgar emas.

6. Sovrinlarni olish tartibi va shartlari

6.1 G'olib bank tomonidan yutuq yutilganligi to'g'risida xabardor qilingan kundan boshlab 10 (o'n) ish kuni ichida Sovrinni olish uchun shaxsini tasdiqlovchi hujjatning asl nusxasi bilan Bankka tashrif buyurish majburiyatini oladi.

6.2. Sovrin G'olib va Bankning vakolatli vakili tomonidan imzolangan O'tkazish va qabul qilish dalolatnomasi asosida G'olibga topshiriladi.

6.3. Bankning yutuqni g'olibga topshirish bo'yicha majburiyatlari ular ishtirokchiga topshirilgan va topshirish va qabul qilish dalolatnomasi imzolangan paytdan boshlab bajarilgan hisoblanadi.

6.4. Sovrinni olish huquqi sovrin topshirilgandan so'ng g'olibga o'tadi.

6.5. Mukofot bilan taqdirlash marosimi jamoatchilik va ommaviy axborot vositalarini jalb etgan holda tantanali ommaviy tadbir sifatida tashkil etilishi mumkin.

7. Aksiya ishtirokchilarini aksiya shartlari, uni to‘xtatib turish yoki muddatidan oldin tugatish to‘g‘risida xabardor qilish tartibi

7.1. Aksiya ishtirokchilarini uni o‘tkazish shartlari va tartibi to‘g‘risida xabardor qilish Bank sahifasida, ijtimoiy tarmoqlarda, Internetda, ommaviy axborot vositalarida va reklama postlarini joylashtirish orqali amalga oshiriladi.

7.2. Ushbu aksiya haqida batafsil ma’lumotlar, shuningdek, Aksiya qoidalari Bankning rasmiy korporativ veb saytida: www.infinbank.com, “Aktsiyalar” bo‘limida joylashtiriladi.

7.3. Aksiya haqida batafsil ma’lumotni bankning ishonch telefoni orqali (+998 71) 202-50-60 va 1214 qisqa raqami orqali ham olish mumkin.

7.4. Aksiya muddatidan oldin to‘xtatilgan, shartlari uzaytirilgan yoki Qoidalarga o‘zgartirish kiritilgan taqdirda, tegishli ma’lumotlar Bankning www.infinbank.com rasmiy korporativ veb saytining “Aktsiyalar” bo‘limida joylashtiriladi.

7.5. Shaxsiy ma’lumotlar to‘g‘risidagi qonun hujjatlari talablariga muvofiq, Ishtirokchi ushbu Qoidalarning shartlari, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga zid bo‘lmagan boshqa maqsadlar uchun Bank o‘z faoliyatini amalga oshirishi uchun har qanday shaxsiy ma’lumotlarini Bank tomonidan qayta ishlashiga va ulardan foydalanishiga muddatsiz rozilik beradi.

ENGLISH _____